

## Korxonalar va tashkilotlar

(2018 yil yanvar-noyabr)

2018 yilning yanvar-noyabr oyida viloyatda 5,0 mingtaga yaqin korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi, bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1,1 mingtaga yoki 27,8 foizga ko'pdir.

Buning natijasida joriy yilning boshiga nisbatan faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni 3,7 mingta (13,8 %) ga o'sgan hamda ularning umumiy soni 30,6 mingtani tashkil etgan.


### Korxonalar va tashkilotlar yillar kesimida soni (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari), ming birlikda



Mamlakatimizda qulay ishbilarmonlik muhitini jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'rnida tadbirkorlik sub'ektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, xayotga tadbiiq qilinmoqda.

Bu esa aholi hamda xorijiy sarmoyadorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

### Hududlar kesimida faoliyat yuritayotgan korxonalar va tashkilotlar soni (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari), ming birlikda




### Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari, 2018 yilning 1 noyabr holatiga)



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha jami faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soniga nisbatan 21,8 % savdoda, 19,3 % sanoatda, 11,3 % qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida, 7,5 % yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda, 7,4 % qurilishda, 3,4 % tashish va saqlash, 1,8 % sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 1,3 % axborot va aloqa va 26,1 % boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.

### Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning hududlar kesimida soni, o'sish dinamikasi (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari) birlikda




### Ro'yxatdan o'tgan va faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning o'sish dinamikasi

	Ro'yxatdan o'tgan	Faoliyat ko'rsatayotgan	2018-yil 1 dekabr xolatiga	
			Ro'yxatdan o'tgan, %	Faoliyat ko'rsatayotgan, %
<b>Toshkent viloyati</b>	<b>35021</b>	<b>30645</b>	<b>100</b>	<b>100</b>
tumanlar:				
Oqqo'rg'on	859	724	2.5	2.4
Ohangaron	824	735	2.4	2.4
Bekobod	963	836	2.7	2.7
Bo'stonliq	1738	1393	5.0	4.5
Bo'ka	1131	878	3.2	2.9
Quyichirchiq	948	864	2.7	2.8
Zangiota	3504	3002	10.0	9.8
Yuqorichirchiq	1993	1901	5.7	6.2
Qibray	3613	3115	10.3	10.2
Parkent	1647	1556	4.7	5.1
Piskent	909	837	2.6	2.7
O'rtachirchiq	1692	1560	4.8	5.1
Chinoz	1143	1088	3.3	3.6
Yangiyo'l	1764	1520	5.0	5.0
Toshkent	2499	2188	7.1	7.1
shaharlar:				
Nurafshon sh.	859	797	2.5	2.6
Olmalik sh.	1475	1381	4.2	4.5
Angren sh.	2364	1785	6.8	5.8
Bekobod sh.	1021	961	2.9	3.1
Ohangaron sh.	848	753	2.4	2.5
Chirchiq sh.	1957	1838	5.6	6.0

2018 yil yanvar-noyabr holatiga 4973 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etilgan. Bu esa 2017 yilning shu davriga nisbatan 27,8 % ga ko'pdir. Eng ko'p yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar Zangiota (461 ta), Qibray (435 ta), Toshkent (328 ta) va Yangiyo'l (314 ta) tumanlarida tashkil etilgan. Eng kam

Ohangaron shahrida (108 ta) va Piskent (116 ta), Bekobod (135 ta) hamda Bo'ka (146 ta) tumanlarida tashkil etilgan.

### Hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning soni, birlikda




Agar iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ko'rsak eng ko'pi sanoatda (1191 ta), savdoda (970 ta), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (803 ta), qurilishda (535 ta) va boshqa (736 ta) sohalarida tashkil etilgan. Eng kami esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (75 ta), axborot va aloqada (84 ta), tashish va saqlashda (175 ta) hamda yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar (404 ta) tashkil etilganligi kuzatilmoqda.



**Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yillar kesimidagi soni, birlikda**  
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

	2016 yil 1 dekabr xolatiga			2017 yil 1 dekabr xolatiga			2018 yil 1 dekabr xolatiga		
	Jami	o'tgan yilga nisbatan, %	umumiy soniga nisbatan, %	Jami	o'tgan yilga nisbatan, %	umumiy soniga nisbatan, %	Jami	o'tgan yilga nisbatan, %	umumiy soniga nisbatan, %
Sanoat	397	123.3	14.1	783	197.2	20.1	803	102.6	16.1
Savdo	636	112.0	22.6	984	154.7	25.3	1191	121.0	23.9
Qurilish	195	105.4	6.9	302	154.9	7.8	535	177.2	10.8
Qishloq va o'rmon xo'jaligi	679	97.4	24.2	699	102.9	18.0	970	138.8	19.5
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	339	133.5	12.1	354	104.4	9.1	404	114.1	8.1
Tashish va saqlash	106	95.5	3.8	144	135.8	3.7	175	121.5	3.5
Axborot va aloqa	62	106.9	2.2	54	87.1	1.4	84	155.6	1.7
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	43	126.5	1.5	71	165.1	1.8	75	105.6	1.5
Boshqa turlari	351	99.7	12.5	499	142.2	12.8	736	147.5	14.8


### Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimidagi soni, birlikda



### Tashkiliy-huquqiy shakllari tasniflagichi bo'yicha faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalarining umumiy soni (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2018 yil 1 dekabr holatiga 25,3 ming tijorat shaklidagi korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, shundan xususiy korxonalar - 5,6 mingta, oilaviy korxonalar - 1,6 mingta, mas'uliyati cheklangan jamiyatlar - 17,5 mingta va boshqalar - 0,6 mingtani tashkil etadi.

### Tashkiliy-huquqiy shakllari tasniflagichi bo'yicha faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalarining umumiy soni (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



### Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni


2018 yil 1 dekabr holatiga faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni 825 tani tashkil etdi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan 234 taga yoki 39,6 % ga o'sgan. Shuningdek Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalardan 468 tasi norezident ishtirokidagi qo'shma korxonalar, 357 tasi esa xorijiy korxonalar hisoblanadi.

### Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar yillar davomida o'sishi, birlikda





## Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar tarkibida qo'shma korxonalar va xorijiy korxonalar soni, birlikda



Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining asosiy qismi Zangiota tumani 126 ta (13,8%), Qibray tumani 92 ta (10,1%), Yuqorichirchiq tumani 80 ta (8,8) va Angren shahri 74 ta (8,2%) hissalariga to'g'ri keladi. Eng kam xorijiy kapital ishtirokida tashkil etilgan korxonalar Bo'ka tumani 6 ta (0,7 %), Bekobod shahar va Bekobod tumani 7 tadan (0,8 %), Piskent tumani 10 ta (1,1 %), Oqqo'rg'on tumani 11 ta (1,2 %) va Quyichirchiq tumani 17 ta (1,9 %) hissalariga to'g'ri keladi.

Bu esa mazkur hududlarda xorijiy hamkorlar bilan ishlashni, investitsiyalar jalb etish borasida amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlarni yanada rivojlantirishni talab etadi.

Agar faoliyat yuritayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarini iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ushbu ma'lumotlarni 2018 yil 1 dekabr holatiga ko'rsak qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi 72 ta (8,7 %), sanoatda 516 ta (62,5 %), qurilishda 20 ta (2,4 %), savdoda 116 ta (14,1 %), tashish va saqlashda 19 ta (2,3 %), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 13 ta (1,6 %), axborot va aloqada 1 ta (0,1 %), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda 8 ta (1,0 %) hamda boshqa faoliyat turlarida 60 ta (7,3 %) tashkil qilgan.

Shundan ko'rinib turibdiki faoliyat yuritadigan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining asosiy qismi sanoat va savdo faoliyat turiga to'g'ri kelarkan. Shuningdek eng kam ulushi esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda axborot va aloqa faoliyat turlariga to'g'ri keladi.

### Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni (birlikda)



2018 yilning yanvar-noyabr oyida xorijiy kapital ishtirokidagi ro'yxatdan o'tgan yangi korxonalarining soni 226 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 146 taga ko'paygan yoki 2,8 baravarga ko'paygan.

Bunda, Xitoy Xalq Respublikasi rezidentlari kapitali ishtirokida - 68 ta, Rossiya Federatsiyasi – 33 ta, Turkiya Respublikasi – 28 ta, Qozog'iston Respublikasi - 30 ta va Janubiy Koreya Respublikasi - 17 ta yangi korxonalar ro'yxatdan o'tgan. Shuningdek, 2018 yil davomida Afg'oniston Islom Respublikasi, Buyuk Britaniya, Germaniya Federativ Respublikasi, Turkmaniston, Pokiston Islom Respublikasi, Singapur Respublikasi, Vetnam Sotsialistik Respublikasi, Avstriya Respublikasi, Chexiya Respublikasi, Gretsiya Respublikasi, Isroil davlati va boshqa davlatlar rezidentlari qo'shma faoliyatga qiziqish bildirdilar.

## Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning davlatlar kesimidagi soni, (yanvar-noyabr holatiga) birlikda



Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, asosan sanoatda 136 ta, savdoda 37 ta, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida 23 ta va qurilish hamda boshqa faoliyat turlarida 10 tadan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar yangi tashkil etilgan.




**Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi  
korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha  
soni, o'sish dinamikasi**

	2017 yil yanvar-noyabr			2018 yil yanvar-noyabr		
	Jami	O'tgan yilga nisbatan %	Umumiy soniga nisbatan %	Jami	O'tgan yilga nisbatan %	Umumiy soniga nisbatan %
<b>Sanoat</b>	59	168.6	73.8	136	230.5	60.2
<b>Savdo</b>	4	200.0	5.0	37	925.0	16.4
<b>Qurilish</b>	1	100.0	1.3	10	1000.0	4.4
<b>Qishloq va o'rmon xo'jaligi</b>	13	216.7	16.3	23	176.9	10.2
<b>Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar</b>				2		0.9
<b>Tashish va saqlash</b>				4		1.8
<b>Axborot va aloqa</b>						
<b>Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish</b>	2		2.5	4	200.0	1.8
<b>Boshqa turlari</b>	1	50.0	1.3	10	1000.0	4.4

**Kichik korxonalar va mikrofirmalar soni**

2018 yil 1 dekabr holatiga viloyatimizda faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning soni 25,0 mingtani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich 2017 yil 1 dekabr holatiga qaraganda 16,2 % ga oshgan. Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning asosiy qismi yani 2,6 mingtasi (10,5 %)


Qibray, 2,5 mingtasi (10,2 %) Zangiota, 1,9 mingtasi (7,6 %) Toshkent va 1,6 mingtasi (6,6 %) Yuqorichirchiq tumanlari hissalariga to'g'ri keladi.



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko'rsatayotgan jami 25,0 mingta kichik korxonalar va mikrofirmalarning 3,4 mingtasi (13,6 %) - qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida, 5,8 mingtasi (23,2 %) - sanoatda, 2,4 mingtasi (9,0 %) - qurilishda, 6,6 mingtasi (26,5 %) - savdoda, 1,0 mingtasi (4,1 %) - tashish va saqlashda, 2,3 mingtasi (9,1 %) - yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida, 0,3 mingtasi (1,5 %) - axborot va aloqa sohasida, 0,4 mingtasi (1,7 %) -

sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda, va 2,8 mingtasi (11,3 %) - boshqa faoliyat turlari hissalariga to'g'ri keladi. Shundan ko'rinib turibdiki, faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning asosiy qismi sanoat va savdo faoliyat turlariga to'g'ri keladi. Shuningdek, eng kam ulushi esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda axborot va aloqa faoliyat turlariga to'g'ri keladi.

### Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da



2018 yil yanvar-noyabr holatiga 4,6 mingdan oshiq kichik korxonalar va mikrofirmalar yangi tashkil etilgan. Bu esa 2017 yilning shu davriga nisbatan qaraganda 991 taga yoki 27,3 % ga ko'proqdir. Eng ko'p yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar O'rtachirchiq tumanida (442 ta), Yangiyo'l tumanida (410 ta), Bo'ka tumani (301 ta) va Bekobod shahrida (290 ta) tashkil etilgan. Eng kam Bekobod (97 ta), Bo'stonliq (104 ta) hamda Toshkent (131 ta) tumanlarida tashkil etilgan.

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida esa eng ko'pi sanoatda (1188 ta), savdoda (969 ta), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (799 ta) va qurilishda (534 ta) tashkil etilgan. Eng kam esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (70 ta), axborot va aloqada (83 ta) hamda tashish va saqlashda (173 ta) tashkil etilgan.

## Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni




## Oilaviy korxonalar soni

Yuridik shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tgan oilaviy korxonalar soni - 2018 yilning 1 dekabr holatiga 1791 tani tashkil etib, ulardan 1588 tasi yoki 88,7 % faoliyat yuritadi. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda davlat ro'yhatidan o'tganlarning hamda faoliyat ko'rsatayotganlarning umumiy soni o'rtacha 11,6 % ga oshganligini ta'kidlash lozim.




### Oilaviy korxonalar sonining o'sish dinamikasi, birlikda



Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda oilaviy korxonalarining 39,9 % yoki 633 tasi sanoat, 19,3 % yoki 307 tasi yashash va ovqatlanish xizmatlari, 17,5 % yoki 278 tasi savdo, 13,6 % yoki 236 tasi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 0,9 % yoki 15 tasi tashish va saqlash, 0,8 % yoki 13 tasi qurilish, 0,7 % yoki 11 tasi sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 0,2 % yoki 3 tasi axborot va aloqa hamda 5,8 % yoki 92 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.



### Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da



Toshkent viloyati statistika boshqarmasi  
Statistik registrlarni yuritish bo'limi

Tel.:71-230-86-83 (84)